SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMI QARORI

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 2-uy. Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-21-65, e-mail: nurobod.t@exat.uz

2023 - yil 25 - oktabr 221-7-99-Q/23 Nurobod tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasi (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y, 03/20/642/1396-son) “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi (Qonun hujjatlari milliy bazasi 15.10.2020-y 03/20/641/1389-son) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam miqdorini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 10-bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi” Nizomga asosan muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun korxona, tashkilot va muassasalarda 2024-yilga belgilangan kvota ish o‘rinlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasiga asosan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va

mehnat bozoriga teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi qarorga asosan, tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarining ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha sonidan 158 ta o‘rinlari zaxira qilinadi (3 foizdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda), shu jumladan:

- nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslar uchun 13 nafar *(8,2 foiz);*

-o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 35 nafar *(22,2 foiz);*

-umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat granti bo‘yicha ta’lim bitiruvchilari uchun 96 nafar *(60,7 foiz);*

-O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 8 nafar *(5,1 foiz);*

-pensiya oldi yoshdagi shaxslar uchun 1 nafar *(0,6 foiz);*

-jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra, tibbiy yo‘sindagi majburiy choralarga tortilgan shaxslar uchun 4 nafar *(2,6 foiz);*

-odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 1 nafar *(0,6 foiz)* miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Mazkur qaror ilovasida keltirilgan korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylarini umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2024-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizi band qilib qo‘yish to‘g‘risida, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (G’.Musurmanov)ga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozoriga teng raqobatlasha olmaydigan shaxslar

uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozoriga teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki qo‘yilishini) hamda ish joylarini sanitariya gigeniya normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarilishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. Tuman hokimining mazkur qarori bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxsi (rahbari)ga, shuningdek ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi (AV ro‘yxat raqami 3163-son, 31.05.2019-yil) buyrug‘iga asosan “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiyalar ajratilishi inobatga olinsin.

7. Tuman Kambag‘alikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (G‘.Musurmanov) mazkur qarorni tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

8. Tuman hokimining 2022-yildagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 284-7-99-Q/22 sonli qarori 2023-yilning 31-dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Ibragimov) zimmasiga yuklansin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **S.Berdikulov**

Nurobod tuman hokimining
2023-yil 25-oktabrdagi
221-7-99-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

1. R.Ibragimov	-tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, **komissiya raisi**
2. S.Xujamiyarov	-tuman hokimining o‘rinbosari, **komissiya raisi o‘rinbosari**
3. G‘.Musurmanov	-tuman Kambag‘alikkni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i, **komissiya kotibi**
4. D.Amirova	-tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri
5. A.Abiyev	-tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i

Nurobod tuman hokimining
2023-yil 25-oktabrdagi
221-7-99-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/r	Tuman nomi	Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Tashkilot INN raqami	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan						
						o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	nogironligi bo‘lgan shaxslar	pensiya oldi yoshidagi shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	odam savdosidan jabrlanganlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1	Nurobod	“Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamg‘armasi” Davlat muassasasi “Nurobod” hududiy boshqarmasi	308450922	1071	9	2	5	1	1			
2	Nurobod	"Navoiyuran" davlat korxonasi “Nurobod” ishlab chiqarish maydoni	201204514	944	9	2	5	1	1			
3	Nurobod	Nurobod tumani tibbiyot birlashmasi	200777809	1178	12	3	6		3			
4	Nurobod	Nurobod tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	201151154	106	2	1	1					
5	Nurobod	Nurobod tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limi	200779970	68	1	1						
6	Nurobod	Nurobod tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi	200779734	134	4	1			1		2	
7	Nurobod	Samarqand viloyat sanitariya-epidemilogik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi Nurobod tuman bo'limi	200779679	74	3	1	2					
8	Nurobod	Nurobod tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo`limi	200779496	48	2		1				1	
9	Nurobod	"SAROYQO‘RG‘ON" o'rmon xo'jaligi	200779780	67	3	1		1			1	
10	Nurobod	Nurobod tuman 18-son bolalar musiqa va san'at maktabi	206980853	41	1		1					
11	Nurobod	Nurobod tumani bolalar-o`smirlar sport maktabi	207238017	99	2	1	1					

12	Nurobod	Nurobod tuman "BARKAMOL AVLOD" bolalar maktabi	207125972	234	2		1		1			
13	Nurobod	Nurobod tuman 1-son kasb-hunar maktabi	200779472	84	1		1					
14	Nurobod	Nurobod tuman 2-son kasb-hunar maktabi	206930692	60	2	1	1					
15	Nurobod	Nurobod tuman 1-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	203314083	128	3		2		1			
16	Nurobod	Nurobod tuman 2-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206858837	131	3	1	1		1			
17	Nurobod	Nurobod tuman 3-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	203314075	89	1		1					
18	Nurobod	Nurobod tuman 4-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206904810	60	1		1					
19	Nurobod	Nurobod tuman 5-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898749	61	2		1		1			
20	Nurobod	Nurobod tuman 6-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899042	81	2		2					
21	Nurobod	Nurobod tuman 7-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899066	50	2	1	1					
22	Nurobod	Nurobod tuman 9-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898621	45	1		1					
23	Nurobod	Nurobod tuman 10-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898899	120	3		2	1				
24	Nurobod	Nurobod tuman 11-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899003	76	1		1					
25	Nurobod	Nurobod tuman 12-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899106	51	1		1					
26	Nurobod	Nurobod tuman 13-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899114	73	2	1	1					
27	Nurobod	Nurobod tuman 14-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206865994	42	1		1					
28	Nurobod	Nurobod tuman 15-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898638	46	1		1					
29	Nurobod	Nurobod tuman 16-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898961	61	1		1					
30	Nurobod	Nurobod tuman 17-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898954	103	2	1	1					
31	Nurobod	Nurobod tuman 18-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899192	51	1		1					
32	Nurobod	Nurobod tuman 20-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899184	56	2		2					
33	Nurobod	Nurobod tumani 22-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206859527	86	1		1					
34	Nurobod	Nurobod tuman 23-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899160	65	2		2					
35	Nurobod	Nurobod tuman 24-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899153	68	2	1	1					
36	Nurobod	Nurobod tuman 25-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898771	79	2	0	1	1				
37	Nurobod	Nurobod tumani 26-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898804	45	1		1					
38	Nurobod	Nurobod tuman 27-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898645	39	1		1					
39	Nurobod	Nurobod tuman 28-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898788	66	2	1	1					
40	Nurobod	Nurobod tuman 31-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206883593	42	3	1	1	1				
41	Nurobod	Nurobod tuman 32 umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898922	51	1		1					
42	Nurobod	Nurobod tuman 35-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898653	55	3		2		1			
43	Nurobod	Nurobod tuman 36-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899081	42	3	1	2					
44	Nurobod	Nurobod tuman 38-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898993	40	1		1					
45	Nurobod	Nurobod tuman 39-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898732	44	1		1					
46	Nurobod	Nurobod tuman 40-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899034	62	2		1		1			
47	Nurobod	Nurobod tuman 41-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206858820	95	1		1					
48	Nurobod	Nurobod tuman 42-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898660	46	1		1					
49	Nurobod	Nurobod tuman 45-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899177	47	1		1					
50	Nurobod	Nurobod tuman 46-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899098	68	3	1	1		1			
51	Nurobod	Nurobod tuman 47-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898756	61	1		1					
52	Nurobod	Nurobod tuman 48-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898978	46	1		1					
53	Nurobod	Nurobod tuman 49-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899074	53	1		1					
54	Nurobod	Nurobod tuman 53-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898907	50	2		1					1
55	Nurobod	Nurobod tuman 55-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898882	83	2	1	1					
56	Nurobod	Nurobod tuman 56-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	203335414	72	2	1	1					

57	Nurobod	Nurobod tuman 57-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899145	68	2	1	1					
58	Nurobod	Nurobod tuman 58-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898843	46	1		1					
59	Nurobod	Nurobod tuman 60-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899200	48	2	1	1					
60	Nurobod	Nurobod tuman 61-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	203484561	65	2		2					
61	Nurobod	Nurobod tuman 62-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898946	52	2	1	1					
62	Nurobod	Nurobod tuman 63-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898939	46	2		1			1		
63	Nurobod	Nurobod tuman 64-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898985	60	2		1	1				
64	Nurobod	Nurobod tuman 66-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898828	43	1		1					
65	Nurobod	Nurobod tuman 67-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898677	74	2	1	1					
66	Nurobod	Nurobod tuman 68-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898795	39	1			1				
67	Nurobod	Nurobod tuman 69-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898700	50	2	1	1					
68	Nurobod	Nurobod tuman 70-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	207079627	44	1		1					
69	Nurobod	Nurobod tuman 73-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206898850	37	1		1					
70	Nurobod	Nurobod tuman 75-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	206899059	51	1		1					
71	Nurobod	Nurobod tuman 77-umumiy o‘rta ta'lim maktabi	207231374	60	1		1					
72	Nurobod	Nurobod tuman "KUYOSHCHA" nomli 8- maktabgacha ta'lim	207056520	49	1		1					
73	Nurobod	Nurobod tuman 7-son maktabgacha ta'lim muassasasi	207058336	35	1		1					
74	Nurobod	Nurobod tumani Maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli 3-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	207273892	51	1		1					
75	Nurobod	Nurobod tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga qarashli BOYCHECHAK 12-son maktabgacha ta'lim tashkiloti	207308902	41	1		1					
76	Nurobod	Nurobod tuman maktabgacha ta'lim bo'limiga qarshli 9-sonli maktabgacha ta'lim muassasasi	305751794	40	1		1					
77	Nurobod	Nurobod tuman "HUMO" 15-son Davlat maktabgacha ta'lim	308186159	33	1	1						
78	Nurobod	Nurobod tuman "KAMALAK" nomli 6-son maktabgacha ta'lim	207039651	71	1	1						
79	Nurobod	Nurobod tuman "NAVRUZ" nomli 4-son maktabgacha ta'lim	207005149	56	1	1						
80	Nurobod	Nurobod tuman 2-sonli KO'ZMUNCHOQ maktabgacha ta'lim	306262445	32	1	1						
81	Nurobod	Nurobod tuman 5-son maktabgacha ta'lim muassasasi	207058898	43	1		1					
82	Nurobod	Nurobod tuman 11-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	306642874	62	1	1						
83	Nurobod	Nurobod tuman 10-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti	306642810	55	1		1					
Jami zahiralangan ish o‘rinlari				**8288**	**158**	**35**	**96**	**8**	**13**	**1**	**4**	**1**